

**DTPI professor–o‘qituvchilari tomonidan, O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti tomonidan ilgari surilgan “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltrish va
ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim
tashabbus” doirasida tashkil etilgan tarbiyaviy tadbir**

Bayonidan ko‘chirma

or. 12 2025-yil

Qatnashdi: Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası professor-o‘qituvchilari 16-nafar
A.Ahmedov, A.Azamqulov, A.Yusupov, M.Raxmonova, O‘.Rajabov,
Sh.Umaralieva, N.Ibragimova, S.Do‘stov, D.Melieva, F.Safarov, Z.Jumayeva,
A.Normurodova, E.Tangriqulov, Sh.Umaraliyeva, V.Rahmatulina

K U N T A R T I B I:

1. **“5-muhim tashabbus yoshlarga qanot”** musobaqa doirasida sportning
“Shashka va shaxmat” turi bellashuv

Mas‘ul o‘qituvchilar: Amirqulov A, Azamqulov A

E S H I T I L D I:

Talabalarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, ularni fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, “5-muhim tashabbus” loyihasi doirasida ommaviy sportga jalb etish maqsadida “Shashka va shaxmat” bo‘yicha bellashuv tashkil etildi. Kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni ilm o‘rganishga, o‘zlariga kerak bo‘lgan axborotva ma’lumotlarni olishga bo‘lgan talab va ehtiyojlarini to‘laroq va sifatli qondirish, aholining barcha qatlamlarini ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy, madaniy qadriyatlar aks etgan bosma va elektron kitob va hujjatlar bilan ta‘minlash, ularni saqlash, keyingi avlodlarga yetkazib berish uchun yaratilgan shart sharoitlarni yanada rivojlantirish, ko‘lamini kengaytirish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Zero, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir” Mazkur nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 14.08.2018 yildagi Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ-3907-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltrish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus” doirasida o‘tkazilmoqda.



ЁШЛАР МАЪНАВИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШ ВА УЛАРНИНГ БЎШ ВАҚТИНИ МАЗМУНЛИ ТАШКИЛ ЭТИШ БЎЙИЧА 5 ТА МУҲИМ ТАШАББУС!

БЕРИНЧИ ТАШАББУС

Ёшларнинг мусика, рассомлик, адабиёт, театр ва санъатнинг бошқа турларига қизиқишларини оширишга, истеъдодини юзага чиқаришга хизмат қилади

ИККИНЧИ ТАШАББУС

Ёшларни жисмоний қийинштириш, уларнинг спорт соҳасида қобилиятини намоён қилишлари учун зарур шароитлар яратишга йўналтирилган



БЕШИНЧИ ТАШАББУС

Хотин-қизларни иш билан таъминлаш масалаларини назарда тутати

УЧИНЧИ ТАШАББУС

Аҳоли ва ёшлар ўртасида компьютер технологиялари ва интернетдан самарали фойдаланишни ташкил этишга қаратилган


ТЎРТИНЧИ ТАШАББУС

Ёшлар маънавиятини юксалтириш, улар ўртасида китобхонликни кенг тарғиб қилиш бўйича тизимли ишларни ташкил этишга йўналтирилган



О‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning barkamol bo‘lib voyaga yetishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida bir qancha

muhim hujjatlar qabul qilindi, amaliy ishlar yo'lga qo'yildi, muayyan natijalarga erishildi. Shunday bo'lsa ham, bu borada bajariladigan ishlar hamisha keng ko'lamli bo'lib, o'z dolzarbligini saqlab qolaveradi. Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimiz rahbarligida **2019-yil 19-martda** "Yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o'qishga qiziqishini oshirish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni amalga oshirish to'g'risida" o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida yoshlarni rivojlantirishga qaratilgan masalalar muhokama qilindi va sohalarga taalluqli 5 ta muhim tashabbus ilgari surilgan edi.



Maqsad-Talabalar orasida sportga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, shashka va shaxmat bo'lgan mahoratini namoyish etish va an'analarni targ'ib qilish. Shu tashabbus doirasida joriy yilning 28.11.2024-yil sanasida Pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchilari talaba yoshlar bilan sport musobaqasi tashkil etdilar. **"5-muhim tashabbus yoshlarga qanot"** musobaqa doirasida sportning **"Shashka va shaxmat"** turi bellashuv kafedra o'qituvchilari A.Amirqulov, A.Azamqulov tashkil etdilar.



Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi kunduzgi ta'limda tahsil olayotgan 1-4-bosqich barcha talaba-yoshlar tanlovda ishtirok etdilar. Tanlovda talabalarning shashka va shaxmatga bo'lgan ko'nikmalarini rivojlantirish; Musobaqa tasdiqlangan reglament asosida ikki yo'nalishda **shashka** va **shaxmat** bo'yicha o'tkazildi. Ishtirokchilar belgilangan tartibda o'zaro bahslashdi. Hakamlar natijalarni xolisona baholab bordilar. Tanlov so'ngida hakamlar hayati tamonidan g'olib bo'lgan talabar aniqlanib diplom hamda esdalik sovg'alar bilan taqdirlandilar.

Yig'ilish raisi:

A.K.Xamidov

Yig'ilish kotibi:

N.Ibragimova

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti talabalari o'rtasida
"5-muhim tashabbus yoshlarga qanot"

musobaqa doirasida sportning


"Shashka va shaxmat" turi bellashuv

Ushbu yutuq intellektual mahorat, sabr-toqat va strategik fikrlash
natijasi bo'lib, sportga bo'lgan fidoyiligingizning yorqin isbotidir.

28.11.2025-y



Sizga kelgusi musobaqalarda ham muvaffaqiyat
va yangi zafarlar tilaymiz!



ЕЛОН!

МУСОБАҚА БАЙНИ
ДОНИШҚҰЁНИ ФАКУЛТЕТИ
ПЕДАГОГИКА

5 ТАШАББУСИ МУҲИМ –
ҚАНОТИ НЕРҶУБАХШИ
ҚАВОНОН

28.11.2025

СОАТ 11.40

ДОИР БА

ШАШКА ВА ШАХМАТ

207-АУДИТОРИЯ



"Besh muhim tashabbus"—yoshlarga qanot

Ushbu shior ostida Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi tojik tili guruhlari o'rtasida Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchilari A.Azamqulov, A.Amirqulovlar tashabbusi bilan sportning shaxmat va shashka turlari bo'yicha musobaqa tashkil etildi.

Jarayonda barcha sportsevar talabalar, yutorlar va kafedra o'qituvchilari ishtirok etishdi. Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida o'tkazilgan musobaqa natijalariga ko'ra, shaxmat bo'yicha:

- 🥇 - o'rin Karimova Mijgonaga,
- 🥈 - o'rin Zikiryayeva Muhabbatga,
- 🥉 - o'rin Sheraliyev Diyorbekga nasib etdi.

Shashka bo'yicha:

- 🥇 - o'rinni Ro'zimurodov Shaxzod,
- 🥈 - o'rinni Hojimurodova Parvina,
- 🥉 - o'rinni Ramazonova Azizalar qo'lga kiritdi.

Sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan munosib taqdirlandi.

 DTPI Matbuot xizmati